

## Hamkorlik samaralari

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani U. Qo'ziyev, "Qishloq xo'jalik mashinalari" kafedrasini mudiri K.Astanaqulov va kafedra dotsenti D.Alijanovlar "O'zagrotexsanoatxolding" AJ qoshidagi "Qishloq xo'jalik mashinasozligi konstruktorlik texnologik markazi"da Janubiy Koreyaning "JEONBUKTECHNOPARK" global texnologik hamkorlik markazi menedjeri janob In Bong Kim bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv doirasida tomonlar bir-birlariga o'zlari ishlayotgan muassasalarning faoliyat yo'nalishiga oid ma'lumotlar berishdi.

Shundan so'ng janob In Bong Kim bilan o'zaro hamkorlik masalalari muhokama etildi. Uchrashuv so'ngida "Qishloq xo'jalik mashinasozligi konstruktorlik texnologik markazi"da JEONBUKTECHNOPARK" global texnologik hamkorlik markazi tomonidan tashkil etilgan "Portal turdagi o'lchov-nazorat mashinasidan foydalanish" mavzusidagi o'quv kursida "Qishloq xo'jalik mashinalari" kafedrasining 2 nafar magistrini tinglovchi sifatida qatnashishga hamda kelgusida koreyalik hamkorlar bilan "Qishloq xo'jalik mashinasozligi konstruktorlik texnologik markazi"da tashkil etilgan innovatsion texnoparkda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bo'yicha startap loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Mazkur kelishuv doirasida "QXM" kafedrasini magistrleri P. Orinbayev va S. Xaziyevlar o'quv kursida qatnashishdi va zamonaviy o'lchov vositalari orqali qishloq xo'jalik mashinalarining fazodagi o'lchamlarini aniqlash bo'yicha malakaga hamda tegishli sertifikatga ega bo'lishdi.



**"Qishloq xo'jaligi mashinalari" kafedrasini mudiri K. D. Astanaqulov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**